MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIV RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI

Buxoro Xalqaro universiteti

mustaqil tadqichotchisi

Raxmonova Shaxrizoda Laziz qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv rivojlanishini shakllantirishning pedagogik va psixologik omillari tahlil qilingan. Tadqiqotda “Ilk qadam” davlat dasturi talablari asosida bolaning bilish jarayonlari, xususan, xotira, diqqat va tafakkurni rivojlantirishning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, Jan Piaje, E. Torndayk kabi jahon psixologlari hamda mahalliy olimlarning kognitiv taraqqiyot bosqichlari haqidagi nazariy qarashlari qiyosiy o‘rganilgan. Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida o‘yinlar va didaktik metodlar orqali bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning samarali yo‘llari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha yosh, kognitiv rivojlanish, “Ilk qadam” dasturi, idrok, tafakkur, pedagogik omillar, psixologik tayyorgarlik, Jan Piaje, didaktik o‘yinlar, intellektual salohiyat.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolaning kognitiv rivojlanishini ta’minlash zamonaviy pedagogika va psixologiyaning eng muhim masalalaridan biridir. Ushbu rivojlanish bolaning keyingi maktab ta’limiga tayyorligini belgilovchi asosiy omil bo‘lib, “Ilk qadam” davlat dasturi doirasida jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutqiy, bilish va ijodiy sohalar kompleksida amalga oshiriladi. Kognitiv rivojlanish “cognize” (bilmoq, anglamoq, tushunmoq) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, bolaning atrof-muhitni idrok etish, xotira, tafakkur va nutq jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Qadimgi davrlardan boshlab olimlar maktabgacha yoshdagi psixik rivojlanishni bolaning kelajakdagi intellektual salohiyatining poydevori deb bilishgan. Yunon

faylasufi Protagor bola shaxsiy rivojlanishini ijtimoiy ta’sir va ahloqiy muloqot orqali shakllantirishni ta’kidlagan bo‘lsa, amerikalik psixolog E. Torndayk “tabiiy kuchlar” va “tug‘ma mayllar”ni etakchi omil, muhit ta’sirini esa ikkinchi darajali deb hisoblagan. Z. Freyd yomon muhitning salbiy ta’sirini, Ibn Rushd esa sezgi organlari va asab tizimi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’kidlaydi. Jan Piaje nazariyasiga ko‘ra, kognitiv rivojlanish sensor-motor (0-2 yosh), preoperatsional (2-7 yosh) va konkret operatsiyalar (7-11 yosh) bosqichlaridan iborat bo‘lib, assimilyatsiya va akkomodatsiya jarayonlari orqali shakllanadi.

Rene Dekart g‘oyalarni uch turga ajratgan: natija-oqibatga asoslangan (hissiy tajribalar), tayyor va tug‘ma g‘oyalar. Maktabgacha yoshdagi bolalar asosan birinchisiga tayangan holda o‘z tajribalari orqali bilim oladi, ammo bu ob’ektiv qoidalarni anglashga yetarli emas. O‘zbek olimlari M. Zufarova va G. Djanpeisova kognitiv jarayonlarni (diqqat, idrok, xotira, tafakkur) faollashtirish va geometrik tasavvurlarni shakllantirish metodlarini ishlab chiqqanlar.

O‘zbekistonda barcha maktabgacha ta’lim tashkilotlarida (MTT) “Ilk qadam” dasturi amal qilmoqda, unda bolaning rivojlanishi beshta asosiy sohada belgilangan: jismoniy, ijtimoiy-hissiy, nutq-muloqot, bilish jarayoni va ijodiy rivojlanish. Bilish jarayonining rivojlanishi (kognitiv soha) bolaning fikrlash, xotira va tafakkurini mustahkamlashga qaratilgan bo‘lib, 6-7 yoshli bola murakkab vaziyatlardan konstruktiv chiqish yo‘llarini topishi lozim. Dasturning 3.2.2-bo‘limi ijtimoiy-hissiy rivojlanishni alohida ko‘rsatgan bo‘lsa-da, kognitiv soha buni ijtimoiy ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘laydi.

Lesgaftning ta’kidlashicha, bog‘cha yoshidagi serharakatlilik va taqlidchanlik xususiyatlari kognitiv faollikning asosini tashkil etadi – bola faoliyatni talab qiladi, ammo bir xillikdan charchaydi. Shu sababli, faoliyatni maqsadga yo‘naltirilgan o‘yinlar orqali tashkil etish zarur. Qiziqish va ehtiyojlarning kuchayishi (keng doiraga chiqish, tengdoshlar bilan muloqot) kognitiv rivojlanishni turtki beradi. Pedagogik

omillarga tarbiyachilarning ijodiy yondashuvi, didaktik o‘yinlar va rivojlanish markazlari kiradi. Masalan, rolli o‘yinlar, sensor tajribalar va ijodiy vazifalar 5-6 yoshdagilarda obrazli tafakkurni, 6-7 yoshdagilarda esa mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Xorijiy tajriba (Shvetsiya, Finlyandiya, AQSh) o‘yin asosidagi ta’lim va individual yondashuvni ta’kidlaydi, bu O‘zbekistonda ham joriy etilmoqda.

M. Zufarova psixologik tayyorlikni diqqat, xotira va nutq jarayonlari orqali baholashni taklif qilgan. G. Djanpeisova geometrik tasavvurlarni shakllantirishda vizual va amaliy usullardan foydalanishni buyurgan. Ilg‘or tajribalarda bolalarni muammolarni hal qilishga jalb qilish, ijodiy tasavvurni boyitish muhim.

Psixologik omillar orasida ijtimoiy-emotsional rivojlanish alohida o‘rin tutadi: bola o‘z “Men”ini anglaydi, hissiyotlarni boshqaradi va tengdoshlar bilan muloqot qiladi. Bu kognitiv jarayonlarni kuchaytiradi, chunki emotsional barqarorlik xotira va tafakkurni yaxshilaydi. Piajega ko‘ra, mantiqiy fikrlash asta-sekin shakllanadi, abstrakt fikrlash esa o‘smirlikda. Torndayk va Byuler tug‘ma omillarni, Dyui esa ehtiyojlarni ta’kidlaganligi kabi, muvozanatli yondashuv zarur.

Bog‘cha yoshidagi bolaning qiziqishi murakkab psixik hodisa bo‘lib, bilish jarayonini undaydi. Ehtiyojlar (bilish, o‘ynash) ortishi kognitiv faollikni oshiradi. Maktabgacha yoshdagi kognitiv rivojlanishni shakllantirishda pedagogik (o‘yinlar, markazlar) va psixologik (hissiyotlar, ehtiyojlar) omillar uzviy hamkorlikda ishlaydi. “Ilk qadam” dasturi bu jarayonni ilmiy asoslaydi. Tarbiyachilar uchun tavsiyalar: individual yondashuv, didaktik o‘yinlar, qiziqishni uyg‘otuvchi faoliyatlar va xorijiy tajribani joriy etish. Natijada, bola maktabga kognitiv va shaxsan tayyor bo‘ladi, jamiyatga moslashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019- yil 16-dekabr. O‘RQ-595-son. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son)

2. Xolmatova M., Maktabgacha ta’lim psixologiyasi, Fan, Toshkent, 2017

3. Zokirova D.X., Maktabgacha ta’lim metodikasi, TDPU nashriyoti, Toshkent, 2021

4. NG Malikovna, MM Nurmatovna, Basic principles of technology for teaching methodological subjects in preschool education, ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact.

5. A.A.Xudoyberdiyev “Shaxsiylashtirilgan o‘qitish srategiyalari: nazariy va amaliy jihatlar.” O‘zbekiston ta’limi va innovatsiyalar, 2020-yil